


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish
magistratura mutaxassisligining*

MALAKA TALABI

TOSHKENT-2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:
Toshkent davlat transport universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “01” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	4
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Ilmiy faoliyat qo‘yiladigan talablar	7
4.	Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirishga) qo‘yiladigan talablar.....	8
5.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i	11

1. Umumiy tavsifi

71040201 - Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul' tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **71040201-Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:

"Transport xizmalari" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat tartibini saqlash departamenti yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshqarmalarida, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va vazirlik qoshidagi Avtomobil yo'llar qo'mitasi korxonalarida, yo'l-transport xodisalari ekspertizasi va transport baholash ekspertizasi tashkilotlarida, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tasarrufidagi boshqarmalar, mintaqaviy temir yo'l uzellari va stansiyalarida harakat xavfsizligini va poyezdlar ishini tashkil etishda texnik vositalar sozligini ta'minlashda yuzaga keluvchi kompleks masalalarni hal etish, shuningdek sohani rivojlantirish, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat tartibini saqlash departamenti yo'l harakati xavfsizligi xizmati, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi, transport korxonalarida harakat xavfsizligi va yo'l xarakatini tashkil etish xizmati faoliyati;

yo'l-transport xodisalari ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar;

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tasarrufidagi boshqarmalarida harakat xavfsizligini ta‘minlash faoliyati.

71040201-Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish mutaxassisligi bitiruvchilari professional ta‘lim muassasalarida, ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3 kasbiy faoliyatlarining turlari

ilmiy tadqiqot faoliyati;
pedagogik faoliyat;
loyihaviy-konstruktorlik va texnologik faoliyati;
tahlil va nazorat faoliyati;
tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

71040201-Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma‘ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kopseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o‘quv jarayoni va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:

harakat xavfsizligini ta‘minlash ishlarini tashkil etish loyihasini ishlab chiqishi;

bajarilayotgan tajriba-tashkiliy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqishi va tadqiqot qilishi;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqishi va ularni qo‘llashi;

xalqaro tajribalarga muvofiq harakat xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning xalqaro tajribalarga muvofiq instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish.

Tahlil va nazorat faoliyatida:

yo‘l harakatini tashkil etish sohasida mutaxassislik bo‘yicha mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

yo'l-transport xodisalarini ekspertizasini tashkil qilish va ularni amalga oshirish;
harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistr tayyorlash mutaxassisligiga mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

loyihalarni boshqarishi, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi, bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilishi, loyiha jamoasini boshqarishi;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil etishi va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirishi;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi va ularni tatbiq qilishi;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

harakat xavfsizligi va uni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ijrochilar va ilmiy-tadqiqot jamoasi ishini rejalashtirish, tashkil qilish va informatsion masalalarini yechish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

qabul qilinayotgan qarorlarni miqdoriy va sifat bo'yicha baholash, ilmiy yutuqlarni qo'llay olish;

xalqaro tajribalarga muvofiq zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

harakat xavfsizligini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni tuzishi, ularning harakati bo'yicha yangi loyihalar kiritish va tatbiq qilishi;

harakat xavfsizligini xizmati faoliyatini samarali boshqarishi;

yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalaridan samarali foydalanishi;

harakat xavfsizligini tashkil etishning optimal sxemalarini ishlab chiqishi va tahlil qilish xamda zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llashda ishtirok etishi;

yo'l-transport xodisalarini oldini olish ishlarini tashkil etishi va uning amaliy masalalarini yechish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish.

texnologik jarayonlar va ularning elementlari bo'yicha sinovlar o'tkazish;

informatsion xizmat ko'rsatish;

mehnatni tashkil qilish, metrologik ta'minot va texnik nazorat qilish;

zamonaviy texnik vositalardan foydalanib zaruriy loyihalarni bajarish;

kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi jarayonida hosil bo'ladigan yangi masalalarga tez moslashish uchun olingan nazariy bilimlarni qo'llay olish, zarur hollarda tezkor qarorlar qabul qilish;

ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va tizimlashtirish;

axborot texnologiyalari uchun algoritmlarni ishlab chiqish va tadqiq etish;

tizimli va amaliy dasturiy ta'minot mahsulotlarini, dasturlar majmuasini, algoritmik va dasturlash tillarini o'rganish;

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

ilmiy va loyihaviy-konstruktorlik-texnologik faoliyat muammolarini chuqur tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash;

harakat xavfsizligini ta'minlash qurilmalari va vositalariga xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amaliy masalalarini yechish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish;

transport harakatni tashkil etish tizimlari ishlarini samarali boshqarishda yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish va mavjudlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy masalalarini yechish uchun xalqaro tajribalarga muvofiq yangi texnologiyalarni ishlab chiqish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

harakat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ishlarni samarali boshqarishda yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish va mavjudlarini takomillashtirish;

harakat xavfsizligini ta'minlash usullaridan samarali foydalanish;

harakat xavfsizligini ta'minlash texnologiyalarini ishlab chiqish va tahlil qilish hamda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish.

harakat xavfsizligi va uni tashkil etishda axborotni himoya ostiga olish, berilayotgan, saqlanayotgan va qayta ishlanilayotgan axborotni ishonchliligini tizimli tarzda ta'minlash maqsadida turli vosita va usullarni qo'llash, choralarni ko'rish va tadbirlarni amalga oshirish;

harakat xavfsizligini ta'minlovchi tizimlarning asosini tashkil etuvchi ta'riflar va tamoyillarini bilish;

harakat xavfsizligini ta'minlash qurilmalari va vositalariga texnik xizmat ko'rsatish tartiblarini bilish;

tashish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat nazorati, xarakat xavfsizligiga doir asosiy talablarni bilishi;

texnologik jarayonlar samaradorligi va xavfsizligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar tizimini loyihalash, dasturiy ta'minot, harakat xavfsizligini ta'minlovchi texnologiyalarni qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi.

3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy faoliyat ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida elektr poyezdlar muhandisligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:

mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy pedagogik ishlar:

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

4. Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirish) qo'yiladigan talablar.

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 2 va 4-semestrlarda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

5. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1204	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
Avtomobil transportida harakat xavfsizligi va uni tashkil etish bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	YSHHX 11210	Yo'l sharoiti va harakat xavfsizligi	360	12	1,2
1.04	TON 11212	Transport oqimlari nazariyasi	360	12	1,2
1.05	YHTM1104	Yo'l harakati tizimlarini modellashtirish	120	4	1
1.06	YHTNS 11208	Yo'l harakati tizimi nazariyasi va statistikasi	240	8	1,2
1.07	HXX 1304	Harakat xavfsizligi xizmatlari	120	4	3
2.00		Tanlov fanlar	360	12	3
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Harakat xavfsizligi muhandisi (avtomobil transporti bo'yicha), pedagog, tadqiqotchi</i>			
Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi va uni tashkil etish bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	TYTTTEB11212	Temir yo'l transportida tashishni tashkil etish va boshqarish	360	12	1,2
1.04	PHXTTV1106	Poyezdlar harakat xavfsizligini ta'minlashda texnik vositalar	180	6	1
1.05	HXTKT12308	Harakat xavfsizligini ta'minlashning kompleks tizimi	240	8	2,3
1.06	PHXN1204	Poyezdlar harakat xavfsizligi nazariyasi	120	4	2
1.07	TYTTTEATAT 1304	Temir yo'l transportida tashishni tashkil etishni avtomatlashtirish tizimlari va axborot texnologiyalari	120	4	3
1.08	XTTTEB1104	Xalqaro tashishlar texnologiyasi, tashkil etish va boshqarish	120	4	1
2.00		Tanlov fanlar	420	14	1,2,3
JAMI			1800	60	1,2,3
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Harakat xavfsizligi muhandisi (temir yo'l transporti bo'yicha), pedagog, tadqiqotchi</i>			
Ilmiy faoliyat			1800	60	1,2,3,4
HAMMASI			3600	120	1,2,3,4

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va o'quv dasturi (magistratura dasturi), profil, o'quv davri, ta'lim texnologiyalari, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, loyihalash, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, yo'l sharoiti va harakat xavfsizligi, harakat xavfsizligini ta'minlash, harakat xavfsizligi xizmati, yo'l harakatini tashkil etish xizmati, yo'l harakati xavfsizligi xizmati, transport oqimlari, yo'l harakati tizimi, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  O.K. Abduraxmanov

M.O.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev



202__ yil "___" ___

M.O.

O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi

Vazir o'rinbosari  I. Abdugafarov



202__ yil "___" ___

M.O.

O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX

Boshliq o'rinbosari  E. Bozorov

202__ yil "___" ___

M.O.



"Temiryo'linfratuzilma" AJ
bosh direktori

 S. Norqabilov



202__ yil "___" ___

M.O.

**Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan
71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi
bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh
oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2024-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Transport vaziri o'rinbosari I.A.Abdugafarov, O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX boshliq o'rinbosari E.X.Bozorov, “Temiryo‘linfratuzilma” AJ bosh direktori S.A.Norqabilov va Toshkent davlat transport universiteti rektori prof. O.K.Abduraxmanov birgalikda Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talabi va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligining malaka talabi hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O'zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagi “O'z DSt 3557:2021 “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejaning ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejaning o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsifa etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi

Transport vaziri o'rinbosari

I.A.Abdugafarov

“Temiryo‘linfratuzilma” AJ bosh direktori

S.A.Norqabilov

**O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX
boshliq o'rinbosari**

E.X.Bozorov

**Toshkent davlat transport universiteti
rektori**

O.K.Abduraxmanov

71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TAQRIZ

“Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligining malaka talabi va o‘quv rejasini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, O‘zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta’limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda hamda kelgusida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan, magistrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va

texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallasuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

“Temiryo‘linfratuzilma” AJ bosh direktori



S.A.Norqabilov

**Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan
71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi
bo'yicha oliy ma'lumotli magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va
zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari
va o'quv rejasiga**

TAQRIZ

Toshkent davlat transport universitetida 71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018-yil 3-apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422 "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779 "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, magistrning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 71040201 – Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX
boshliq o'rinbosari



E.X.Bozorov